

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**ADABIYOTSHUNOSLIK ASOSLARI
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lism
Ta'lism sohasi:	110000 – Ta'lism
Ta'lism yo'nalishi:	60111400-O'zbek tili va adabiyoti

Fan/modul kodi AA104	O'quv yili 2023-2024	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
	Adabiyotshunoslik asoslari	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni adabiyotshunoslikning tarixiy asoslari va nazariy masalalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, adabiyotning nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.</p> <p>Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarga adabiyotshunoslik asoslari fanining ahamiyati, o'zbek adabiyotining tarixiy asoslari va nazariy masalalariga oid bilim va tushunchalar berish, adabiyotning boshqa sohalar bilan munosabati, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyatda qo'llay olishga o'rgatish va natijada talabalarda o'zbek adabiyotining asoslari, og'zaki va yozma adabiyotning tarixiy shakllanish bosqichlari kabilarni bilish, o'z fikrini hayotiy misollar orqali asoslash, o'rganganlarini amalda qo'llay olishga o'rgatishdir.</p> <p>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. "Adabiyotshunoslik asoslari" fan sifatida. Badiiy asar tushunchasi.</p> <p>Adabiyotshunoslik – fan sifatida. Adabiyotshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari. Adabiyotshunoslikning tadqiq obyekt – badiiy asar. Badiiy asar – badiiy kommunikatsiya vositasi. Badiiy ijod jarayoni haqida.</p> <p>2-mavzu. Badiiy asarda shakl va mazmun. Zamon va makon.</p> <p>Shakl va mazmun tushunchalari haqida. Badiiy asarda shakl va mazmun birligi. "Badiiy asar shakli" va "badiiy asar mazmuni" tushunchalarining shartligi. Mazmunning shaklga, shaklning mazmunga muvofiqligi badiiyatning muhim sharti sifatida. Shakl va mazmunning originalligi haqida. Zamon va makon tushunchasi.</p> <p>3-mavzu. Badiiy obraz va obrazlilik.</p> <p>Badiiy obraz va uning asosiy xususiyatlari. Inson obrazi badiiy adabiyotning o'zagi sifatida. Inson obrazini yaratish yo'llari. Badiiy obrazlar tasnifi. Badiiy obraz spesifikasi. Badiiy obraz ratsional va emotsional birlik sifatida. Badiiy obrazning ko'p ma'noliligi. Metaforiklik va assotsiativlik.</p>			

4-mavzu. Asar kompozitsiyasi.

Badiiy asar kompozitsiyasi. Kompozitsion vositalari. Epik nutqning kompozitsion shakllari: rivoya, tavsif, dialog. Obrazlar sistemasi. Badiiy vaqt. Tashqi kompozitsiya.

5-mavzu. Badiiy asar syujeti. Konflikt.

Syujet haqida tushuncha. Syujet turlari. Syujet komponentlari. Syujetning badiiy asardagi o'rni va poetik vazifasi. Konflikt va uning turlari. Xarakterlararo konflikt. Qahramon va muhit konflikti. Ichki (psixologik) konflikt.

6-mavzu. Adabiy tur nazariyasi

Adabiy tur haqida tushuncha. Epik tur va uning o'ziga xosligi. Lirik turning spesifik xususiyatlari. Dramatik turning o'ziga xos xususiyatlari.

7-mavzu. Adabiy janrlar nazariyasi. Epik tur.

Epik tur janrlari. Roman janri poetikasi. Qissaning o'ziga xosligi. Kichik epik janrlar nazariyasi.

8-mavzu. Lirik janrlar nazariyasi.

Lirik tur va uning janrlari. Lirik qahramon tushunchasi. Lirik asarlarni janrlarga ajratish prinsiplari. Hozirgi she'riyatdagi lirik janrlar xususiyati. Liro-epik janrlar.

9-mavzu. Dramatik janrlar.

Dramatik janrning o'ziga xosligi. Dramatik asarlarni janrlarga ajratish prinsiplari. Komediya, tragediya, tragik-kmediyalar.

10-mavzu. Badiiy asar tili va badiiy tasvir vositalari.

Badiiy (poetik) til tushunchasi. "Poeyik til", "umumxalq tili" va "adabiy til" tushunchalari, ularning o'zaro munosabati. Badiiy asar tilining ifodaviyligi. Badiiy nutq shakllari: sochma (nasr) va tizma (she'riy), monologik va dialogic. Badiiy tilning an'anaviyligi. Tasvir va ifoda vositalari haqida umumiyl tushuncha. Tildan foydalanishda normadan "og'ish" tushunchasi va uning turlari. Leksik sathdagi normadan og'ish: so'z tanlash asosida tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytirish. Trop (ko'chim) semantik sathdagi normadan og'ish sifatida. Tropning asosiy turlari.

11-mavzu. She'r tuzilishi. Vazn.

She'riy va nasriy nutq haqida. Ritm tushunchasi. "She'r tizimi" va "vazn" tushunchalari haqida. She'riy tizimlar. Metrik, melodik, sillabik, tonik she'r tizimlari.

12-mavzu. Aruz vazni.

Aruz vazni haqida. Aruzda ritmik bo'laklar: harf, juzv, rukn, bahr. Solim va far'iy bahrlar. Zihof. Mumtoz lirikada aruzning qo'llanishi.

13-mavzu. Barmoq vazni.

Barmoq vani – milliy vazn. Turoqlanish tartibi, ritm va ohang. Soda va qo'shma vazn.

14-mavzu. Adabiy jarayon.

Adabiy jarayon tushunchasi. Adabiy taraqqiyotning ichki va tashqi omillari. Adabiy jarayonning yetakchi tamoyillarini belgilash prinsiplari.

15-mavzu. Ijodiy metod va oqimlar.

Ijodiy metodlar haqida ma'lumot. Ijodiy oqim va adabiy jarayon munosabati.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot to'g'risidagi fan.
2. Badiiy asarda shakl va mazmun.
3. Obraz va obrazlilik.
4. Badiiy asar kompozitsiyasi. Badiiy asarda konflikt va xarakter.
5. Badiiy asar syujeti.
6. Adabiy tur va janrlar estetikasi.
7. Epik tur janrlari. Hikoya, qissa va roman janrlari. O'zbek romanchiligi taraqqiyoti.
8. Lirik tur va uning janrlari.
9. Dramatik tur va uning janr xususiyatlari.
10. Badiiy tilning obrazliligi va emotSIONalligi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari.
11. Ma'naviy va lafziy san'atlar. Erkin she'r tizimi.
12. Aruz tizimi. Mumtoz qofiya turlari.
13. Barmoq tizimi.
14. Adabiy hayot va jarayon.
15. Metod va oqimlar (romantizm, realism, modernizm).

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingen natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Aristotelning "Poetika" asarini o'rganish, sharhini yozish.
2. "Majolis un-nafois" asarini o'rganish, tahlilini yozish.

3. Fitratning “Adabiyot qoidalari”, “Aruz haqida” asarlarini o‘rganish.
4. Cho‘lponning adabiy-estetik qarashlari va “Adabiyot nadur?” maqolasi bilan tanishish va shu savolga shaxsiy mulohaza tayyorlash.
5. “Jahon adiblari adabiyot haqida” kitobini sharhini yozish.
6. A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani, “Uloqda” hikoyasi, “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi” kabi hajviyalari tahlilini yozish.
7. Matyoqub Qo‘shtonovning “Saylanma” maqolalar to‘plamini o‘qib o‘zlashtirish, “Adabiyotda estetik kategoriyalar” bobini konspektlashtirish.
8. A.Fitratning “Shaytonning tangriga isyoni”, “Abulfayzxon” dramasi, “Qiyomat” hikoyasi tahlili.
9. O.Sharafiddinovning “Saylanma” nomli maqolalar to‘plamini mutolaa qilish. (Referat yozish).
10. U.Normatovning “Ijod sehri”, “Qodiriyy mo‘jizasi” kitoblarini mutolaa qilish.
11. A.Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani, “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi tahlili.
12. Oybekning “Qutlug‘ qon” romani, “Bolalik” qissasi, saralangan she’rlaridan yod olish va tahlil qilish.
13. G‘.G‘ulmuning “Shum bola” qissasi, “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi, saralangan she’rlaridan yod olish va tahlil qilish.
14. A.Qahhorning “Sarob” romani, hikoyalari: “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Anor” asarlarini o‘qish va tahlil qilish.
15. M.Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi, saralangan she’rlari o‘qish va tahlil qilish.
16. Modern hikoyalar bo‘yicha bo‘yicha prezentatsiya tayyorlash.
17. O. Yoqubov: “Ulug‘bek xazinasi”, “Diyonat”, “Qanot juft bo‘ladi” romani, “Muzqaymoq” hikoyasi tahlili.
18. E.Vohidovning “O‘zbegim”, “Inson” qasidasi, “Istanbul fojeasi” (dramatik doston), “Ruhlar isyoni” dostonlari tahlilini yozish.
19. A.Oripovning saralangan she’rlari: “O‘zbekiston”, “Yuzma-yuz”, “Tilla baliqcha”, “Chol va kommunizm” she’rlari, “Jannatga yo‘l” dramatik dostoni tahlilini yozish.
20. Adabiyot va mafkura mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
21. Bir asar tahlili bo‘yicha maqola yozish.
22. T.Murod “Ot kishnagan oqshom” va “Oydinda yurgan odamlar” qissalarida milliylik masalasi tahlili.
23. Yozuvchi Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasini o‘qib, muhokama qilish.
24. U.Hamdamning “Muvozanat” romanini o‘qib, referat yozish.
25. Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalari bo‘yicha taqdimot tayyorlash.
26. Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi xususida davra suhbatiga tayyorgarlik ko‘rish.
27. Badiiy adabiyot haqida adabiyotshunoslikdagi bahslar to‘g‘risida shaxsiy mulohazalarni yozish.
28. Badiiy asarda detal mavzusi bo‘yicha taqdimot tayyorlash.

29. Badiiy asar – badiiy kommunikatsiya vositasi mavzusi bo‘yicha esse yozish.
30. Sharq mumtoz adabiyotshunosligi tarixi bo‘yicha taqdimot tayyorlash.
31. Behbudiyning “Teatr nadur?” maqolasini o‘rganish.
32. Sh.Xolmirzayev esselalaridan birini o‘qib o‘rganish.
33. Badiiy publitsistik janrlar bo‘yicha taqdimot tayyorlash.
34. Tazkira janri va uning zamonaviy ko‘rinishlari xususida taqdimot tayyorlash.
35. “O‘zbek adabiyotshunoslari va ularning fan rivojida tutgan o‘rni” mavzusida taqdimot tayyorlash.
36. Ijodkorning adabiy-estetik qarashlari. Muayyan ijodkorning adabiy-tanqidiy qarashlari asosida referat tayyorlash.
37. I.Yakubov “Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi” kitobini o‘qib o‘rganish.
38. Q.Qahramonov “Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari” kitobidan “Adabiy tanqidda yondashuv va metodlar takomili” bo‘limini o‘qib o‘rganish.
39. D.Quronovning “Adabiyot nazariyasi” (2018) kitobini o‘qib o‘rganish.

3.

VII. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- “Adabiyotshunoslik asoslari” fani bo‘yicha bakalavr talaba badiiy adabiyotning umuminsoniy mohiyati, adabiy-nazariy tafakkur tarixidagi o‘ziga xosliklar, badiiy asar mavzusi va poetik g‘oyasi, poetik tafakkurga xos belgilar, badiiy ijod qonuniyatlari va ijod psixologiyasi, badiiy adabiyotning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, badiiy asarni qabul qilish masalalari, jahon adabiyotshunoslida kechayotgan jarayonlar haqida **tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim)**

- Ushbu fan doirasida talaba Adabiyotshunoslik asoslarining tarix, falsafa, psixologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog‘liqligini, adabiyotshunoslik ilmi va adabiy jarayondagi nazariy masalalarni, badiiy asarning shakl va mazmuniga oid nazariy qarashlarni, lirikaning poetik mohiyatini, badiiy asar tili, poetik nutq va uslubiy individullik masalalaridan **foydalana olishi; (ko‘nikma)**.

- Shuningdek, nazariy bilim olgan bakalavr talaba adabiy manbalarga nazariy baho bera olish, badiiy asarni filologik nuqtai nazardan talqin va tahlil etish, badiiy adabiyot va san’atning mazmun va mohiyati bo‘yicha adabiy suhbatlar o‘tkazish, mavjud adabiy manbalar asosida ilmiy xulosa va nazariy umumlashmalar chigara olish haqida **malakalarga ega bo‘lishi kerak.**

4.

VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar

5.

IX. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil

	<p>natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p>X. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari Darslik. T. «O‘zbekiston» nashriyoti, -2000.-560 b. 2. D.Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish Darslik. T. «Akademnashr» nashriyoti, -2010.-228 b. 3. A.Ulug‘ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi Darslik. T. «O‘zbekiston» nashriyoti, -2017.-155 b.
	<p>XI. Qo‘srimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T. 2021. 458 b. 2. X.Umurov. Adabiyot nazariyasi. T.: “Sharq” 2002. 3. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: 2018 4. Q.Yo‘ldoshev, M.Yo‘ldosheva. Badiiy tahlil asoslari. T.: 2016 5. D.Quronov. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T., Akademnashr, 2010. 6. E.Jabborov. Jahon adabiyoti janr va oqimlarining o‘ziga xos xususiyatlari, T., Mumtoz so‘z, 2016. 7. A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: “Sharq” 1990. 8. A.Qayumov. Tanlangan asarlar. 10 jildlik. T.: “Mumtoz so‘z” 2015. 9. B.Qosimov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T. - 2006. 10. H.Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. “Yangi nashr”, 2010.
	<p>Axborot manbalari</p> <p>www.pedagog.uz www.csipi.uz www.edu.uz www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK) www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portalı</p>
7.	<p>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “_____” _____dagi qarori bilan tasdiqlangan</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma’sul: Z.I.Usmanova - CHDPU, “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchi: N.A.Jabborov - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori A.R.Davlatova - CHDPU, “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori,(DSc).</p>